

## BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARING QARASHLARI

**Davlatova Saida Tojimuxammadovna**  
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

**Abdullayeva Fotima Saminjon qizi**  
Qo‘qon universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ota-onalarning farzandlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi. Bu ota-onalarning farzandlarining qadriyatlari va e’tiqodlarini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini o‘rganadi, ularning shaxsiy munosabati va xatti-harakatlari bolalarning axloqiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Maqolada ota-onalarning munosabatiga ta’sir qiluvchi turli omillar, jumladan, diniy e’tiqodlar, madaniy an’analar va shaxsiy tajribalar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, u zamonaviy dunyoda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning murakkab manzarasini boshqarishda ota-onalar duch keladigan muammolarni tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Avlodlararo munosabatlar, jamiyat ishtiroki, yo‘l-yo‘riq, aloqa, ochiqlik, muvofiqlik, sevgi, hurmat, ishonch, ijobiy mustahkamlik, intizom, qiyinchiliklar, qo‘llab-quvvatlash.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается отношение родителей к духовно-нравственному воспитанию своих детей. Он исследует решающую роль родителей в формировании ценностей и убеждений своих детей, подчеркивая, как их личные отношения и поведение влияют на моральное развитие детей. В статье рассматриваются различные факторы, влияющие на отношение родителей, включая религиозные убеждения, культурные традиции и личный опыт. Кроме того, анализируются проблемы, с которыми сталкиваются родители при управлении сложным ландшафтом духовно-нравственного воспитания в современном мире.

**Ключевые слова:** Отношения между поколениями, участие сообщества, руководство, общение, открытость, совместимость, любовь, уважение, доверие, положительное подкрепление, дисциплина, проблемы, поддержка.

## ABSTRACT

This article examines the attitude of parents to the spiritual and moral upbringing of their children. It explores the crucial role of parents in shaping their children's values and beliefs, emphasizing how their personal attitudes and behaviors influence children's moral development. The article discusses various factors that influence parental attitudes, including religious beliefs, cultural traditions, and personal experiences. In addition, it analyzes the problems that parents face in managing the complex landscape of spiritual and moral education in the modern world.

**Keywords:** Intergenerational relationships, community involvement, guidance, communication, openness, compatibility, love, respect, trust, positive reinforcement, discipline, challenges, support.

Bugungi fan texnika rivojlanayotgan davrda demokratik jamiyatimizda yosh avlodning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni tahlil qilib ko'rdik. Bizga ma'lumki, shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar: irsiyat, tarbiya, muhit va shaxsiy faoliyatdir.

Oila mikromuhit hisoblanib, tarbiyaning barcha turlari asosan oilada shakllantiriladi. Demokratik jamiyatimizda yosh avlodning barkamol bo'lishida oilaning o'rni beqiyos. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota – onalarning ota – onalik, qon – qarindoshlik hislatlarini uzatib, shaxsning umumiyligi va ma'naviy – axloqiy jihatdan rivojlanishinigina ta'minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va ma'naviy – axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Shu sababli oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko'rsatmaliligi va serjilo, ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota – onalarning kasb – hunari, oila a'zolarining ma'naviy – ruhiy munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Oila va oilaviy tarbiya muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning tadqiqotlarida asosiy e'tibor oila bo'yicha amaldagi bo'linishga va bolalar tarbiyasida ota – onalarning faollik darajasiga qaratiladi. Shuningdek, ota – onalarning, bolalarning hamda ayollarning bandligi va ularning farzandlari tarbiyasiga bo'lgan ta'siri, oilaning moddiy imkoniyatlari va turar joylariga bog'lab o'rganiladi. Oila tarbiyasining ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjud. Oila tarbiyasining ob'ektiv omillariga oilaning moddiy farovonligi, daromadlarning turlari, o'ziga xosligi va saviyasi, uy – joy bilan ta'minlanish darajasi, maktabgacha ta'lim muassasalaridan foydalanish, shuningdek, oila a'zolarining miqdori, tartibi va boshqalarni kiritish mumkin.

Oila tarbiyasining sub'ektiv omillariga esa oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ma'lumot, oila a'zolarining madaniy, ma'naviy saviyalari, ota

– onalarning pedagogik savodxonligi darajasi, muomala madaniyati va boshqalar kiradi.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi yana shundaki, har bir oila o‘ziga xos bir olam, jamiyatning o‘ziga xos kichik uyushmasi bo‘lib, tarbiya faoliyatida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning shakl va uslublarini umumlashtirish va unga biron – bir tavsiyalar berish noqlay va qiyindir.

Ota – onalar qanchalik ma’naviy – axloqiy boy, e’tiqodli va yuqori ma’lumotga ega bo‘lsalar, shu darajada takomillashgan usul va uslublar yordamida o‘z farzandlarini tarbiyalaydilar. Ular faqat maslahat berish, ma’qullash, taqdirlash, jazolash, suhbat va hikoya, fikr almashish bilangina emas, balki shaxsiy namunalarini, farzandlari bilan ishlash, ularni mehnat faoliyatiga jalb etish orqali tarbiyalaydilar.

Bugungi oilalarda bolalarni ma’naviy – axloqiy tarbiyasi masalalarini qanday hal qilish tajribalarini o‘rganish maqsadida Qo‘qon shahar ota – onalari o‘rtasida quyidagi so‘rovnoman ni o‘tkazdik. Unga quyidagi masalalarni kiritdik:

1. Odob –ahloq tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Televizorning bolalar tarbiyasiga ta’siri qanday?
3. Kompyuterni bilasizmi, internet tizimidan foydalanisizmi?
4. Farzandingizni maktabdagagi axloq – odobi bilan tanishmisiz? Bu haqida sinf rahbari, o‘qituvchilari bilan suhbatlashib turasizmi?
5. Siz farzandingiz uchun namuna bo‘la olasizmi? Endi olingan javoblarni tahlil etishga o‘tamiz.

I. Ota – onalar axloq – odob tarbiyasi vazifalarini to‘la qonli anglay olmasligini ko‘rsatdilar. Ayrim ota – onalar: bolalarni tartibga o‘rgatish (15 %); mehnatga o‘rgatish (26 %); salomlashishga o‘rgatish (21 %); xushmuomalikka o‘rgatish (31 %) deb hisoblaydilar: javob bera olmadilar (7 %).

Demak, bugungi ota – onalar axloq – odob tarbiyasi vazifalarini to‘la tasavvur eta olmaydilar. Shu bilan birga biz bunday xolni to‘g‘ri tushunishni alohida ta’kidlashni istar edik. Yuqoridagilardan kelib shiqib ota – onalarning pedagogik savodxonligida bu yetishmovchilikni bartaraf etish yo‘llarini izlab topish lozim deb hisoblaymiz.

II. Bugungi kunda TV eshittirishlari kirib kelmagan xonodon yo‘q. Har bir oilada TV eshittirishlarini ko‘rish an’anaga aylanib bormoqda. 24 % oilada 2 ta va undan ortiq TV borligi bolalar uchun qulaylik hisoblanadi.

Ota – onalar fikricha, 78 % - bolalar ||Bolajon, Aqlvoy|| va Yoshlar va mahalliy TV dasturlarini tomosha qiladilar, 22 % - ORT, Rossiya kanallarini, ham tomosha qiladilar. Har bir bola TV oldida 1,5 soatdan 4 soatgacha o‘z vaqtini o‘tkazar ekan.

O‘g‘il bolalar sport dasturlari, jangari filmlarni, chet el fil mlarini ko‘rishni yoqtiradilar. Qiz bolalar esa, estrada qo‘shiqlari, seriallar hamda TV shoularni ko‘rishni yoqtiradilar.

Ota – onalar fikricha, hozirgi zamon TV eshittirishlari bolalar axloqiy tarbiyasiga zararli (42 %); foydali (28 %); ahamiyati yo‘q (23 %) deb hisoblaydilar, (7 %) ota – onalar esa o‘z munosabatlarini bildirmadilar.

TV eshittirishlarini bolalar axloqiy tarbiyasiga zararli ta’sir etadi deb hisoblovchi ota – onalar O‘zTV, Yoshlar, mahalliy TVlarda chet el fil mlarini namoyish etishni taqiqlashni (54 %); jangari filmlarni kechki dasturlarda namoyish etishni (22 %); (18 %) - ota – onalar esa ana shunday eshittirishlarga dasturlarda izoh berishni tavsiya etadilar: (6 %) ota – onalar barcha TV eshittirishlarni farzandlar bilan birga ko‘rib, ularga tushuntirib berishni afzal ko‘radilar. Kuzatish natijasida ta’kidlash joizki, ayrim seriallar bolalarga mos bo‘lmay, ishq – sevgini, jinsiy yaqinlikni „ochiqchasiga“ „ovropa“cha talqin etilgan behayo filmlar ekanligini ta’kidlar edik.

Ana shu seriallar, filmlar ta’sirida bolalarda millatimizga mos kelmagan ma’naviy – axloqiy sifatlar tarkib topib borayotgani bejiz emas.

III. Biz kuzatgan oilalarning 40% da kompyuter mavjud bo‘lib, ota-onalarning 70% kompyuterni bolalari uchun olib berishganini, o‘zları faqat o‘yin o‘ynashni bilishlarini aytib o‘tishdi. 30 % ota-onalar o‘zları kompyuterni yaxshi bilishlarini, internet tizimidan foydalanishlarini bildirishdi. Endi tahlil qilsak, ota-onsa o‘zi kompyuterni yaxshi bilmasa, farzandini qanday ma’lumotlarni o‘rganayotganligini bila oladimi degan mulohazali fikr kelib chiqadi. Bolalari uchun shu kompyuterni sotib olishga mablag‘ topgan ota-onsa nima uchun uni o‘rganishga vaqt topa olmaydi, qiziqmaydi, unumli foydalanmaydi. Yana shuni aytish joizki, ota-onsa o‘zi bilsagina farzandini nazorat qilishi, informatik immunitetini oshirishi mumkin.

IV. Ota – onalar o‘z farzandlarining maktabdagagi tartib – intizomga rioya etish hollari tashvishlantirishi tabiiy: ota – onalarni maktabdagagi bolalar intizomi qoniqtira olmayotgani (32 %); tartib – intizomni mustahkamlashni (40 %); o‘quvchilar uchun qoidalarni yangilashni (13 %); kerak bo‘lsa, jazo choralarini qo‘llashni (15 %) tavsiya etadilar.

V. Bugungi ota – onalar o‘z farzandlarining ma’naviy – axloqiy tarbiysi uchun yetarlicha imkoniyatlarga ega. Ularning umumiyligi salohiyati ma’naviy – axloqiy saviyasi, sog‘lom turmush tarzi, tadbirkorligi juda katta omil hisoblanadi. Ota – onalarning (85 %) farzandlarini ma’naviy – axloqiy tarbiyasida namuna bo‘la olayotganini bildirdilar. Ammo kundalik hayotda farzandlari ma’naviy – axloqiy tarbiyasida vaqt yetishmasligi (45 %); ilmiy salohiyat pastligi (25 %); bu borada pedagogik tajribaga ega emasligi (30 %); sabablarini ko‘rsatganlar.

So‘rovnoma olingan javoblarni tahlil etish jarayonida ma’lum bo‘lgan umumiyligi xususiyatlarni ta’kidlamoqchimiz.

1. Ota – onalarning asosiy qismi farzandlariga ta’sir etuvchi omillarni anglab yetadilar, amaliy faoliyatlarida uni bajarishga intilmoqdalar;

2. Ota – onalar o‘z farzandlarini shaxs sifatida shakllanishida shaxsiy namuna ko‘rsatish, sog‘lom turmush tarzi, bolalarni ijtimoiy mehnat, bilim olish, estetik faoliyat turlariga jalb etish usul va uslublaridan foydalanadilar;
3. Oilada shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi tarbiya omili sifatida TV, radio eshittirishlari, pand – nasihat, oz holda bolalar kitobxonligi bo‘lib kelmoqda;
4. Ota – onalarga bu borada yordam berish usul – uslublarini izlash o‘qituvchilar zimmasidagi ish deb o‘ylashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Munavvarov A. —Pedagogika 2006 yil.
2. Imomnazarov M. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. O‘quv -uslubiy kompleks. - T., 2007.
3. Ochil S., Hoshimov I. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. T., 1925.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. 2008 y.
5. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of Usman Azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
6. JS Ikromjonovna. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘yin kompetensiyasini rivojlantirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 586-588
7. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga o‘rgatish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 551-553.
8. Jumanova , S. (2023). Autumn motif in the poetry of Usman Azim. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of Usman Azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
10. <https://prep.uz/news/savollar/stem-ta-lim-tizimi-nima-o-zi> murojaat sanasi: 23.11.2023.